

KINO KO'RISH ORQALI CHET TILLINI O'RGANISHNING AFZALLIKLARI



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2025-25-118-121>

Jamoliddin Vahabov

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

“Sharq tillari” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Chet tillarini o‘rganish doim ham dolzarb va qiyin bo‘lib kelgan. O‘quvchi doim ham chet elga borib horijiy tilni o‘rganish imkoniyati bo‘lmaydi bu esa til o‘rganishda anchagina bo‘shliqlar qolib ketishiga sabab bo‘ladi. Buni bartaraf etish uchun juda ko‘p usullar mavjud bo‘lib, biz quyidagi maqolamizda kino va seriallar ko‘rish orqali til o‘rganishni yanada qiziqroq va samaradorliroq qilish mumkinligi haqida tahlil va mulohazalar yuritamiz.

Kalit so‘zlar: chet tili, kino orqali til o‘rganish, lingvistik kompetensiya, eshitish malakasi, talaffuz, madaniyatlararo muloqot, kommunikativ kompetensiya, til o‘rganishda motivatsiya, sleng va jargonlar, tabiiy til muhiti.

ПРЕИМУЩЕСТВА ИЗУЧЕНИЯ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА ЧЕРЕЗ ПРОСМОТР ФИЛЬМОВ

Аннотация: Изучение иностранных языков всегда было актуальным и сложным. У студента не всегда есть возможность поехать за границу и выучить иностранный язык, что оставляет много пробелов в изучении языка. Есть много способов преодолеть это, и в следующей статье мы проанализируем и обсудим, как просмотр фильмов и сериалов может сделать изучение языка более интересным и эффективным.

Ключевые слова: иностранный язык, изучение языка через кино, языковая компетенция, навыки аудирования, произношение, межкультурная коммуникация, коммуникативная компетенция, мотивация к изучению языка, сленг и жаргон, естественная языковая среда.

THE ADVANTAGES OF LEARNING A FOREIGN LANGUAGE THROUGH WATCHING THE MOVIE

Abstract: Learning foreign languages has always been relevant and difficult. A student does not always have the opportunity to go abroad and learn a foreign language, which leaves many gaps in language learning. There are many ways to overcome this, and in the following article, we will analyze and discuss how

watching movies and TV series can make language learning more interesting and effective.

Keywords: *foreign language, language learning through film, linguistic competence, listening skills, pronunciation, intercultural communication, communicative competence, motivation in language learning, slang and jargon, natural language environment.*

KIRISH

Chet tillarni o'rganish insoniyat jamiyatining rivojlanishida doim ham muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Bu mamlakatlar o'rtasida diplomatik va madaniy aloqalarni o'rnatish, savdo sotiq masalalarida, va yana juda ko'p sohalarda tajriba almashishda asosiy omillardan biridir. O'z ona tilidan boshqa tilni o'rganish nafaqat insonning dunyo qarashini boyitadi, balkim u boshqa xalqlarning madaniyati, urf-odatlarini, tarixi va madaniy boyliklarini o'rganib va tahlil qilgan holda, o'zi yashab turgan hududning xar tamonlama rivojlanishiga ham katta hissa qo'shadi. O'zbekiston ham qadimdan geografik joylashishidan kelib chiqib g'arb va sharq madaniyatlari to'qnash keladigan hududlardan sanaladi. Qadimiy buyuk ipak yo'lining qoq markazida joylashganligi bu yerda ilm-fan va savdo-sodiqning jadal ravishda rivojlanishiga sabab bo'lgan. Ko'p yillar davomida nafaqat islom madaniyati markazi balkim ilm-fan markazi bo'lgani bois qadimiy O'zbekiston hududlarida turli xalqlar va elatlar doimiy tarzda istiqomat qilib kelgan. Va bu o'z navbatida turli tillarda muloqat qilish majburiyatini keltirib chiqargan. Hozirgi globallashuv sharoitida esa boshqa davlatlar bilan muloqat qilish nafaqat zamon talabi, balkim ba'zi bir holatlarda majburiyat ham bo'lib qolmoqda. Shuning uchun chet tillarini o'rganish hozirgi kunda doimgidan ham muhimroqdir.

Lekin chet tilini o'rganish har kim ham bajara oladigan vazifa emasligi hech kimga sir emas. Uning o'ziga hos qiyinchiliklari va mashaqqatlari bor. **“Chet tilini o'rganish inson miyyasi uchun eng qiyin vazifalardan biridir. Nafaqat ona tilidagi lingvistik shaklar va qoliplarni hayolan boshqa tilga o'girish, balkim boshqa tilda fikrlashni o'rganish ham kerak bo'ladi”** deb yozadi. Chet tillarini o'rganishning yana bir qiyinchiliklaridan biri bu har kimga mos tushadigan muqim bir usulning yo'qligidur. O'ragnilayotgan til va o'rganayotgan o'quvchining ona tilidan kelib chiqqan holda ma'lum bir usul tanlash kerak bo'ladi. Chet tilida to'g'ri yozish, to'g'ri talaffuz qilish, grammatik qonun qoidalar va so'z boyligidan tashqari yana bazi bir muhim jihatlar borki ularni dars jarayonida doim ham yetarlikcha o'rgatib bo'lmaydi. Bular ushbu tilda so'zlashuvchi xalqning o'ziga hos urf-odatlarini va turmush tarzi, uning turli xil lahjalari, maqol va iboralari va xar bir zamonga xos bo'lgan jargon (sleng)lari. Ushbu jihatlar muloqat vaqtida juda

muhim sanaladi va darsliklarda odatda rasmiy va adabiy til qoidalariga ko'proq etibor beriladi. Ushbu kamchiliklarni bartraf etish uchun juda ko'p usullar mavjuddir. Bu o'rganayotgan tilda gaplashadigan mamlakatga borib tabiiy til muhitida bo'lish, til tashuvchilar bilan muloqat qilish, badiiy adabiyotlarni mutolaa qilish va horijiy tildagi musiqalarni tinglashdir. Va yana bir juda samarali usullardan biri bu o'rganayotgan tildagi kino va seriallarni tomosha qilishdir. Quyida ushbu usulning bazi bir afzalliklarini birma-bir ko'rib chiqamiz.

Chet tilini o'rganishning asosiy maqsadi kelajakda chet elliklar bilan kundalik hayotda yoki professional kontekstda muloqot qilish uchun kommunikativ kompetentsiyani rivojlantirishdir. Buning uchun o'qituvchi o'quvchilarga ona tilida so'zlashuvchilarning hayoti qanday tashkil etilganligini, ularning madaniy xususiyatlari, urf-odat va an'analarini ko'rsatishi kerak. Bu yerda filmlar yordamga keladi, o'rganilayotgan til madaniyatining o'ziga xos xususiyatlarini aniq ko'rsatib, nafaqat chet tilidagi kommunikativ, balki ijtimoiy va madaniyatlararo kompetentsiyalarni ham rivojlantiradi.

Kino filmlar orqali chet tillini o'rganishning bir nechta afzalliklari bor, birinchi navbatda bu talafuz va shevalarni yanada takomillashtirish imkoniyatidir. Filmlar odatda ma'lum bir xalqning yoki mamlakatning ma'lum bir qatlami yoki bazi bir qismlarida bo'lib o'tadigan voqea va hodisalarni tasvirlab beradi. Kino tabiiy chiqishi uchun ijodkorlar tamoshabinlarga ushbu hududda yashovchi aholining asl shevasida namayon qilishga intiladilar. Bu o'z o'z navbatida usha yerga xos bo'lgan talafuzdagi o'ziga xosliklarni kuzatish imkoniyatini beradi. Kino ko'rish orqali chet tilini o'rganayotganlar ushbu tilda qanday tezlikda gapirish, gapirayotganda nimalarga ko'proq urg'u berish, qanday so'zlarda qanday tovsuh ohanglarda gapirish kerakligini o'rganishlari mumkin bo'ladi. Shu bilan bir qatorda bu o'quvchining eshitish qobiliyatlarini ham ancha rivojlantiradi, u muntazam kino va seriallar tomosha qilish orqali o'zi o'rganayotgan chet tillini yanada osonroq tinglab qabul qilish qobiliyatini anchagina mustahkamlab oladi.

Kino ko'rish orqali chet tillini o'rganishning yana o'ziga xos afzalliklaridan biri bu so'z boyliklarini boyitishdir. Albatda so'zlarni darsliklar yoki lug'atlar ham orqali o'rganish mumkin. Lekin kino filmlar orqali o'quvchi tabiiy hayotda ishlatiladigan so'zlar va jargon yoki slenglarni ham o'rganishi mumkin bo'ladi. Chunki odatiy darsliklarda ko'pincha rasmiy ishlatiladigan yoki adabiy manbalarda ko'p qo'llaniladigan so'lar beriladi, va darsliklar har yili qaytadan nashr etilmasligi, va ma'lum bir darslikdan uzoq yillar davomida foydalanish o'rganuvchiga zamonaviy ibora va slenglarni yetarli tarzda o'rganish imkoniyatini bermaydi. Kino va seriallar esa muntazam tarzda chiqarilib boriladi va bu esa zamonaviy lug'at bilan tanishishning eng yaxshi usullaridan biridir. Kino filmlar orqali

nafaqat zamonaviy so'zlar bilan tanishish, balkim o'rgangan so'z va iborlarni real hayotda qanday qo'llashni ham ko'rsa bo'ladi. Bunday tajriba esa so'zlarni eslab qo'lish imkoniyatini yanada oshiradi va til o'rganishni yanada samarador qiladi.

O'quv texnik vositalarining turlari orasida kino alohida o'rin tutadi. Bu, birinchi navbatda, kinoning ekspressiv usullarining xilma-xilligi natijasida o'quvchiga g'oyaviy, kognitiv va hissiy ta'sirining favqulodda samaradorligi bilan izohlanadi. Chet tilini o'rganayotgan talaba uchun, qo'shimcha ravishda, kino ta'lim sharoitida mavjud bo'lmagan tabiiy aloqa holatlarini qoplash vositasi bo'lib xizmat qiladi. Bunda o'quvchi kino ko'rish orqali usha joyning urf-odatlarini, hajviyasi va qanday holatlarda o'zini qay tarzda tutish kerakligini ham o'rganishlari mumkin bo'ladi. O'rganilayotgan tilda so'zlashuvchi xalqlarning qanday imo-ishoralar ishlatishini o'rganishga ham kino seriallar juda katta foyda beradi.

XULOSA

Yuqorida sanab o'tilgan holatlar til o'rganishni nafaqat osonroq va qiziqroq qiladi, balkim o'quvchilarda til o'rganishga bo'lgan qiziqishni ham yanada ortiradi va motivatsiya beradi. Kino ko'rish o'z navbatida hordiq chiqarish ham demakdur, agar o'quvchi hordiq chiqarish davomida ham til o'rganishda davom etsa bu albatda juda foydali ishdir. Albatda kino filmlar orqali chet tillarini o'rganishning o'ziga yarasha kamchiliklari ham mavjuddir. Shuning uchun ushbu usul orqali chet tillini o'rganayotganda samaradorlikni oshirish uchun ehtiyotliroq bo'lish, va kino ko'rishni boshqa usullar bilan birgalikda qo'llash kerak bo'ladi. Lekin ushbu kamchiliklarni tahlil qilishni keyingi maqolalarimizga yoki boshqa izlanuvchilarga qoldiramiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. A.V. Firsova. (ПРОБЛЕМЫ В ИЗУЧЕНИИ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА И СПОСОБЫ ИХ РЕШЕНИЯ. Сибирский государственный университет телекоммуникаций и информатики.)
2. (ОБУЧАЮЩИЙ И РАЗВИВАЮЩИЙ ПОТЕНЦИАЛ ФИЛЬМОВ НА ИНОСТРАННОМ ЯЗЫКЕ Чеснокова А.В., Поляков О.Г. Тамбовский государственный университет имени Г. Р. Державина; Хаусманн-Ушкова Н.В. Германия, Веймарский университет)
3. (КИНО В ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ. О.С.Бегийович . Вестник ЮУрГУ, номер 2, 2009, Серия «Лингвистика» , выпуск 8)